

XORIJIY TILNI O'RGANISHNING CHAQALOQCHA USLUBI

Farhodjonov O.U.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, davolash ishi fakulteti

2-bosqich talabasi

email: Odiljonfarhodjonov2004@gmail.com

Hayitov M.S.

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi

email: khaitov.maksud@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonning o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ko'nikmalaridan biri, ya'ni xorijiy tillarni o'rganishning yangicha bir qarashdagi, o'zlashtirish oson va qulay deb bilingan bir uslubi haqida so'z yuritiladi. Undan tashqari bu jarayonni tezlashtirish uchun yana bir qancha tavsiyalar berib o'tiladi.

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, vosita, xorijiy til, muammoli vaziyat, tavsiya, "grammar method", IELTS, TOEFL, GMAT, GRE, SAT, ong osti, ong osti reklamasi, avtomotizatsiya

KIRISH

Jadal rivojlanib borayotgan zamonda ko'plab ma'lumotlarni eslab qolish muhim bo'lmay qoldi. Bunga asosiy sabab esa doimiy kengayib borayotgan internet ma'lumotlar bazasi, doimiy yangilanib, avvalgidanda mukammalashib borayotgan sun'iy intellektlar, fazoviy tadqiqotlarning keng miqyosdagi yutuqlari sabab bo'lmoqda. Zamon talabida esa, aynan shu kabi moddiy-texnik bazalardan erkin foydalana oladiganlarga, ularni takomillashtira oladiganlarga, shu kabi sohalarda o'z muvaffaqiyatiga erishgan, jamoa bilan faol muloqotda bo'lib, uning o'sishini ta'minlab bera oladigan, olg'a intiladigan, doimiy izlanuvchi, yangiliklarni yaratishga ishtiyoqmand insonlarga bo'lgan talab har qachongidan ko'ra dolzarbroq, muhim omil bo'lib qoldi. Bu vositalarning aksariyati esa xorijiy tillarda, "especially" ingliz tilida tuzilmoqda.

Turli tillarda erkin muloqot qila oladiganlarga bo'lgan talab hech bir davrda xuddi hozirgidek muhim bo'lmagan. Bu talab esa o'z oldiga qanday qilib buni tezroq, mukammalroq va albatta osonroq o'zlashtirish kabi muammolarni qo'ymoqda. Yoritilayotgan mavzuda esa shu muammoli vaziyatlarga ma'lum bir tavsiyalar berilishi ko'zda tutildi.

ASOSIY QISM

Hozirda bizning mamlakatda anchayin eskirib qolgan til o'qitish metodi – “Direct method”¹ dan hali hanuzgacha foydalanib kelinmoqda va bu hali davomli ko'rinadi.

- Good morning, class. (Xayrli tong, sinfdagilar)
- Good morning, teacher. (Xayrli tong, ustoz.)
- How are you today? (Bugun ahvollaringiz qanday?)
- Fine, thanks, and you? (Rahmat, yaxshi, o'zingiz-chi?)
- Sit down, please. (O'tiring, marhamat.)

Durmush o'g'lim (Durmush-turkcha ism), doskani o'chir! Sinf shovqin-suron bilan o'rinlariga joylashar ekan, rus filologiyasining 3-kurs talabasi, ingliz tili o'qituvchisi Huseyn ustoz doska chetida tizilib turgan bo'rlardan eng uzunini tanlab oldi va mavzuni yoza boshladi:

"Simple Present Tense" (Hozirgi oddiy zamon) ...”².

Ya'ni, domiy bir xil zaylda takrorlanuvchi salomlashuv ketma-ketligi va Maktablarda-ku mayli, hatto o'quv markazlarida ham xuddi shunday: avval alifbo, bo'g'inga teng so'zlar va sonini hatto inglizlarning o'zi ham aniq bilmaydigan va ishlatmaydigan fe'l zamonlari, ya'nikim biz “sevib” o'rganadigan “grammatika” ummonida suzib yuramiz. Ularni maydalab o'rganamiz, qanday paytda, qaysi birini ishlatilishlarini ko'rib chiqamiz, daftarga ko'chirib olish kabi topshiriqda esa qat'iy turamiz.

¹ Grammar method: <https://blog.tjtaylor.net/method-direct-grammar/>

² (Uyan, "Tushunaman, ammo so'zlasha olmayman", 2023)

Eslatma: Til qog'ozdagi bo'sh joylarni to'ldirish uchun o'rganilmaydi, u muloqot qilish uchun o'zlashtiriladi va tilga bo'lgan qobiliyat barchada bor, aks holda o'z ona tilimizni o'rgana olmagan bo'lar edik.

“Xo'p mayli, nima qilibdi, shunda ham tillarni bilish darajasini baholovchi IELTS, TOEFL, GMAT, GRE, SAT kabi va bunga turdosh bo'lgan boshqa sertifikatlardan yuqori natijalar olinmoqda-ku” deyishingiz tabiiy. Ammo bu bizdan ko'p vaqt, naqd, kuch talab etadi. Testda yuqori ball oldi degani u tilda so'zlasha oladi degani ham emas, bunga juda ko'p bora guvoh bo'lganman, bo'lib kelmoqdaman. Til o'rganishdan asosiy maqsad esa o'sha tilda muloqot qilish emasmi?! Qaysi go'dakni ko'rdingiz, avval grammatikani o'rganib keyin ota-onasi bilan gaplashganini? O'zingiz ham o'zbek tili imlo-qoidalari, aniqlovchi, to'ldiruvchilarni o'rgangandan keyin so'zlashib ketganmisiz?! Bunga hech ham ishonmaymanga. “Demak, til o'rganishda o'sha davlatda yashash kerak ekanda” degan o'y ham kelmasin, albatta bu yaxshi, samarali, ammo ozroq mablag' va ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va albatta “astronomiyani o'rganish uchun kosmosga chiqish shart emas”!

Mana birinchi tavsiya: o'zingizga o'sha til muhitini yarating: gatjet sozlamalarini, qurilmangizdagi ilovalarni o'sha tildagi versiyasiga o'girib qo'ying, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatingiz paytida esa faqat o'sha tildagi kontentlar, maqolalar, izlashlarni olib boring. O'qishingizda ham mustaqil ishlar, turli taqdimotlaringizni o'sha til manbaalaridan foydalanib tuzing, kino, serial, multfilmlarni ham o'sha tilda ko'ring, zero bu narsalar ong ostiga avtomatik dasturlanib boradi. Ravon gaplasha olishning yagona yo'li bu tinglash va taqlid qilishdir. Tinglamasdan gapirishga harakat qilishning natijasi esa tarzancha til she'vasidan boshqasi bo'lmasa kerak. Reklamalarda qo'llaniladigan texnika chet tilini o'rganishda ham qo'l keladi. Ha. Jeyms Vikary ismli bir odam bo'lgan va u dunyodagi ilk "ong osti reklamasi" tushunchasini qo'llagan insondir. Bu inson maxsus qurilmalar yordamida filmlar orasiga "Kola iching!", "Popkorm yeng!" jumllarini joylashtiradi. Ushbu jumllar

soniyaning uch mingdan bir qismidek qisqa edi va har besh daqiqada takrorlanardi. Bu ish amalga oshgandan so'ng Nyu-Jersidagi kola savdosi rivojlanib ketadi.³

Ahir chaqalaoqlar ham o'z ona tilisini shunday o'rganmaydimi?! O'zingiz "stol" so'zini qanday qilib o'rganganingizni eslay olasizmi? Qandaydir mnemonik usul⁴ (eng mashhuri TOG⁵ usuli) yordamida yodlaganmisiz? Eng samarali usul ham shu: doimo shu tilda nimalarnidir tinglab yurish. Tushunmasangiz ham. Sababini esa menimcha tushundingiz.

Chaqaloqcha uslub deb bejizga nomlamadim. Kuzatsangiz hech kim tilni bilib tug'ilmasligini bilish qiyin emas. Chaqaloq nima qiladi? Kuzatadi. Eshitadi. Takrorlashga harakat qiladi. O'xshamaydi. Takrorlaydi. O'xshamaydi. Takrorlaydi va siz bilan erkin so'zlashadi. U "o'tgan oddiy zamon" qayerda-yu, at/the lar qayerda ishlatilishiga e'tibor bermaydi, sabab – ularni bilmaydi. Bilmasligi esa inglizcha gapirishida qandaydir muammoga duch kelishiga sabab bo'ladi deb hech ham o'ylamayman! O'zimiz ham ona tilimiz grammatikasini maktablarda o'rganganmiz shekilli?! Va yana bir narsa, biz o'z tilimizda gaplashyotganda e'tiborni faqatgini gap ma'nosiga qaratamiz, grammatikasi esa ong ostidan o'zi kelib chiqadi va miya markazlarimizda faqatgina bir funksiya bajariladi, faqat grammatika bilan shug'ullanib, keyin so'zlashmoqchi bo'lganda-chi? Statistikaning ko'rsatishicha undaylar kundalik suhbatlarda so'zlasha olmaydi, faqat sinfda rejali va sekin-asta gaplashishni boshlashi mumkin. Bunga sabab esa avval o'sha so'z tarjimasini, so'ng uning so'zlanayotgan zamondagi shakli, qaysi gap bo'lagidan so'ng va avval qo'llanilishini o'ylaymiz va qayta tahrirlab uni so'zlashga tushamiz. Tabiiyki bu jarayon avtomotizatsiya davriga yetib kelguncha yetarlicha ko'p vaqt talab etadi.

Aksariyat hollarda nega faqat ingliz tili haqida gapiryotganimning sababini ham aytib o'tsam. Bunga sabab hozirda 87% ma'lumotlar shu tilda chop etilgan. Rasmiy suhbatlarning ham deyarli barchasida asosiy til shu. Ammo bu tilni o'rganish uchun

³ Jeyms Vikariy tadqiqoti: <https://study.com/academy/lesson/james-vicary-experiment-lesson-quiz.html>

⁴ Mnemonika: <https://g.co/kgs/VHMrTT>

⁵ TOG usuli: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-so-z-yodlashning-samarali-usullari>

asosiy maqsad bo'lolmaydi. Aytmoqchimanki, "Nima uchun o'rganish kerak?" savoli "Qanday qilib?" savolidan ko'ra muhimroq. Inson bir narsani o'rganish uchun ehtiyoj sezmasa, uni o'rgana olmaydi. Ingliz tilini o'rganishda aniq maqsad bo'lishi kerak! "Hozirgi davrda ingliz tilini bilish shart!" degan iboralar maqsad bo'lolmaydi. Aniq maqsadlar kerak. Aynan nega kerakligi esa o'quvchining o'ziga bog'liq. Buni bilish uchun tavsiya qiladigan savolim esa: "... tilini bilish menga nima bera oladi?", – savolidir.

Tillar uch xil usulda o'rganilishi ko'pchilikka ma'lum: ona tili sifatida, ikkinchi til sifatida va chet tili sifatida. Ona tili tushunarli. Ikkinchi til esa, masalan, O'zbekiston aholisi uchun rus tili ikkinchi til bo'lib kelmoqda Chet tili esa boshqa barcha tillardir. Uchinchi xil tilni o'zlashtirish undan avvalgi ikki usulga bevosita bog'liq. Ona tilingiz qanchalik yaxshi bo'lsa, ingliz tilingiz ham shunchalik yaxshilanadi. Chet tilida kitob o'qish til o'rganishning eng samarali usullaridan biri, ammo o'z tilidagi kitoblarni o'qimaydiganlar haqida bunday deyishga biroz ikkilanaman. Kitob o'qishda esa albatta darajangizga mos kitob o'qing. Buni bilish usuli esa, o'qigan matningizning 70%igacha shunchaki o'qib tushunsangiz, u siz uchun yozilgan bo'ladi.

Online o'qish borasidagi tavsiyam esa doimo ijobiy, har qachon bu tur o'qishni yoqlab kelganman, bu usulda haqiqatda o'rganmoqchi bo'lganlar, intizomga qattiq amal qila odagiganlarga cheksiz imkoniyatlarni taqdim eta oladi. Yuqorida sanab o'tgan usullarimni ham zamonaviy texnologiyalar bilan amalga oshirish eng qulayidir. You Tube⁶ platformasida juda ko'plab bepul darslar ochiq manbaalar orqali berilgan. Grammatika o'qimoqchi bo'lganlar uchun ham juda ko'plab saytlar topiladi. Qidirishni bilsak kifoya. Videomateriallar orqali o'rganishda kinolarning saviyasiga alohida e'tibor berilishi lozimligini unutmaslik lozim. Kinolarning yaxshi tomoni siz rasmiy yoki badiiy uslubdan uzoqroq bo'lgan ko'cha tilini, odatiy muloqot tilini tinglaysiz va bu erkin so'zlashuvda katta asqotadi. Kinodan ham ko'ra podcastlar foydaliroq deb

⁶ You Tube: <https://m.youtube.com/>

bilaman, bunda ham yangi ma'lumotlar bazasiga va gapirilish uslubiga moslashasiz, taqlid qilasiz, subtitr bilan ko'rish esa eng yaxshi variantdir.

Yana bir tavsiyam: so'zni to'g'ridan-to'g'ri lug'at orqali yakka holda yodlamang. Hamisha biror jumla yoki mavzu ichada yodlang. Kinoni tahlil qilyapsizmi, o'sha so'zning ishlatilgan vaziyatiga qarang. Shaxsiy lug'at tutib, uni yoningizda olib yuring, ko'chada ko'zingiz tushgan narsalarni yozib ularni har ko'rganingizda takrorlash ham samaralidir. Yana bir qo'shimcha: so'z kartalari ham katta yordam beradi. Mobil qurilmada esa ko'plab AnkiDroid⁷ kabi qurilmalar ham katta yordam bera oladi.

XULOSA

So'zim ohirida shuni aytishim kerakki, til o'rganish g'usl qilishni o'rgangandek tez kechadigan jarayon emas, unga biroz sabr, tartib-intizom va eng muhimi doimiylik kerak. "Kritik davr gipotezasi"⁸ga ishonma. Boshqa tomodan esa turli xil "10 kunda ingliz tili", "1 oyda falon til" degan "hype" so'zlarga, marketing iboralariga umuman e'tibor bermang. Yolg'on. Buning uchun til o'rgatadigan tabletka kerak. Agar shunaqasini topgan bo'lsangiz menga ham albatta xabar berishingizni so'rayman. Bir tilni hech qachon ohiriga yetib bo'lmaydi, hatto o'z tilimizdagi so'zlarni ham juda ko'pini bilmasligimiz hech kimga sir emas va bu tabiiy. Barcha so'zlarni o'rganishga harakat qilish esa ortiqcha vaqt va kuch sarflashdan boshqasi emas.

Bu maqolada qisqacha kichik tavsiyalarni berib o'tdim, nasib bo'lsa bu mavzudagi keyingi maqolamda yanada ko'proq ma'lumotlarni yoritishga harakat qilaman, InshaAlloh.

⁷ AnkiDroid Flashcards: [Android](#) ; [Windows](#) ; [IOS](#)

⁸ Kritik davr gipotezasi: <https://bestpublication.org/index.php/jai/article/download/6554/6881/6163>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zamyatkin, N. (2009). "Matrix metod. Sizga xorijiy tilni o'rgatib bo'lmaydi". Toshkent: "Universitet".
2. Uyan, S. (2023). "Inglizcha? No problem". Toshkent: "TRUST AND SUPPORT".
3. Uyan, S. (2023). Tushunaman, ammo so'zlasha olmayman. Toshkent: "TRUST AND SUPPORT".
4. Jeyms Vikariy tadqiqoti:
<https://study.com/academy/lesson/james-vicary-experiment-lesson-quiz.html>
5. Grammar method:
<https://blog.tjtaylor.net/method-direct-grammar/>
6. Kritik davr gipotezasi:
<https://bestpublication.org/index.php/jaj/article/download/6554/6881/6163>